Bugungi kundagi zamonaviy rahbarning izlanuvchanligi

Azimjonov Shohruxbek Ulug'bek o'g'li
Andijon davlat unversiteti
Pedagogika va psixalogiya yo'nalishi
302-guruh talabasi
Tel:+998932419199

Anotatsiya: O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga huquqiy demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda saloxiyati ko'p jixatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, ziyolilarimiz, yoshlarimizning intellektuval savodxonligi, bilimdonligi, bunyodkorligi, tashabbuskorligi va vatanparvarligiga bog'liq. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar zamirida barkamol avlodni tarbiyalash, bilimli va aql zakovotli yetuk avlodni ulg'aytirish masalalasi turibdi. Zero, o'qimishli, bilimli, aql-zakovotli, ruhan bardam va jismonan baquvvat yoshlargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi, mamlakatni barqaror rivojlantirishga erishadi.Bugungi kundagi zamonavi rahbarlarning izlanuvchanligi,jahon standartlariga to'la qonli to'g'ri keladi,bu so'zlarni g'urur bilan ayta olaman.

Kalit so'zlar: Intellektuval, tadbirkor,ziyoli,zakovotli, professional, Vatan, Kelajak.

Bizga ma'lumki, yoshlar jamiyatning muhim strategik resursi hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, joriy yilda yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, ular ilgari suradigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab qarorlari qabul qilinib, uning samarasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasining tashkil etilganligi ana shu yo'lda qilingan muhim harakatlarning samarasidir. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan jadal va tub o'zgarishlar natijasida professional kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarida yosh rahbar kadrlar faoliyat yuritish salmog'i ortmoqda. Bu, o'z navbatida, yosh mutaxassislar jamoaga rahbarlik qilishda boshqaruv sohasida yetarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini taqozo etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida turgan yana bir muhim masala, yosh kadrlarni tarbiyalash siyosati hisoblanadi. Bu siyosatning ahamiyatga molik jihati, yosh kadrlarga boshqaruv sohalarida ham faolliklarini to'la namoyon qilish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, boshkaruv - murakkab kasblardan biri bo'lib, u nafakat iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik bilimlarni nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtirgan holda yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishlikni talab etadi. Bunda umumiy, texnik, idtisodiy, omilkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish bilan birga, rahbar barcha haqiqatlarni tushunish orqali ko'p qirrali vaziyatlarda, sharoitlarda o'z qiyofasini amaliy tarzda to'g'ri ifoda eta olishni bilishi zarur. Kelajagi buyuk davlatni taraqqiy ettirish uchun sitqidildan xizmat qilishga intilayotgan har bir yosh rahbarning bilim va tafakkuri, tashkilotchiligi, izlanuvchanligi, odobi hamda axloqi jamiyatda yangi iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish, ma'naviy va moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan bo'lib, Vatani va xalqi uchun yonib yashash hissi bilan sug'orilmog'i lozim. Ma'lumki, bugungi kundagi rahbar o'zining ijtimoiypsixologik tuzilishi va ma'naviy qiyofasi bilan o'tmishdoshlaridan tubdan farq qiladi.

Boshqarish usullari kishilarni, jamiyatni obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undaydi. Ular aniq bir usul, uslub, maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Demak, boshqaruv uslubi — ishchi va xodimlarga, umuman, boshqarish obyektiga qo‘yilgan maqsadga erishish jarayonida ulaming faoliyatini muvofiqlashtirishning maxsus izlanish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tizim usuli boshqaruv muammolarini yechishda ishlatiladi va tizimning butunligiga asoslanadi. Taraqqiy etgan davlatlarda tizimli majmuali, tizimli tarkib, tizimli funksional, tizimli kommunikatsion va boshqa ko‘rinishlari mavjud.

2. Izlanishning majmuali usuli voqealarni va ularning bir-biri bilan bo‘lgan aloqalarini faqat ushbu fan usuli bilan emas, balki boshqa xil hodisalarni o‘rganuvchi fanlar bilan o’rganadi.

3. Izlanishning tarkibiy usuli murakkab hodisalarni bolaklarga ajratishdan iborat.

4. Vaziyatli yondashish — boshqaruv faoliyatining m aqbul usullarini ichki va tashqi sharoitga qarab belgilash.

5. Integratsion yondashish usuli boshqa usullar ko‘rsatkichlarini hisobga olish asosida boshqarish hisoblanadi.

6. Modellashtirish - boshqariluvchi obyektni boshqarish turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlash yordamida boshqarish usuli.

7. Matematik yondashuvda optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va kompyuterlar keng miqyosda qo‘llanadi.

8. Kuzatish usuli, bu boshqaruv obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to‘plash usuli.

9. Eksperiment - boshqarish asosida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o’tgan usullarni qo‘llash.

Bulardan tashqari, boshqaruvning eng asosiy bilish uslubi dialektik uslub bo‘lib, u boshqaruvga o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mohiyatini ochishga yordam beradi. Boshqarish usullarini ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko'ra: ma’muriy-tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiypsixologik va huquqiy shakllarga ajratish mumkin. Boshqaruv mahorati uning barcha uslublarini egallash, ularni to‘g‘ri baholab qo‘llash, har bir aniq vaziyatda eng samaralisini topish qobiliyatiga ega bo‘lishdan iboratdir.

Foydalangan adabyotlar ro’yhati:

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. - T.: “O‘zbekiston”, 1995. 403-b.

2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. - T: Yangi asr avlodi, 2005.- 152b.

3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya.- T: TDIU.- 2012.-122b.

4. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi.- T: YUNAKS-PRINT MCHJ, 2006.- 232 b.

5. G‘oziyev E.,Toshimov R. Menejment psixologiyasi.-T:O‘zMU,2001.- 144 b.

6.Levchenko E. A. Boshqaruv psixologiyasi. Ma'ruzalar matni [elektron nashr]. "Belarus iste'mol kooperativlari savdo-iqtisodiy universiteti" o'quv. Gomel, 2011 yil.

7.Naumenko E.A. Boshqaruv psixologiyasi. Masofaviy ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmua [elektron nashr].Tyumen: Tyumen davlati universiteti nashriyoti, 2002 yil.

8.Petrov V.V. Menejment maktabi.Universitetlar uchun darslik [elektron nashr] M.2005 y.

9.Urbanovich A. A. Menejment psixologiyasi:darslik [elektron nashr]. "Amaliy psixologiya kutubxonasi" turkumi. Minsk: Hosil, 2003 yil.

10.Cherednichenko I. P.Telnyx N. V. Menejment psixologiyasi "Oliy" ta'lim uchun darsliklar" seriyasi [elektron nashr]. Rostov-Donu: Feniks, 2004 yil.